



ISSN 3030-3710 (P)

ISSN 3030-3095 (E)

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI
ilmiy-amaliy jurnal**

**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY
AND FOREIGN LANGUAGES
scientific and practical journal**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ
И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ
научно-практический журнал**

№ 5, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
<https://t.me/OstanovSH>

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna

Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrası dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

BOLANING IJTIMOY-PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA OTANING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolaning ongida ota timsoli qanday shakllanishi, bu jarayonning ijtimoiy-psixologik omillari, oilaviy tarbiya muhitining ta'siri va ota-ona munosabatlarining bola ruhiyatiga ta'siri, oilaviy muhit, jamiyat va madaniyatning o'rni, shuningdek, otaning farzand ruhiyatiga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. ota obrazining shakllanishi bola shaxsiyatining asosiy komponentlarini – mas'uliyat, ishonch, himoya hissi, gender identifikatsiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutishi, bola hayotining turli bosqichlarida ota obraziga bo'lgan munosabat va tasavvurlarning o'zgarishi, bolaning otasi bilan ijobiy, ishonchli va iliq munosabatlari bolada bir qancha ijobiy sifatlarini rivojlantirishi mumkinligi haqida fikrlar keltirilgan, shuningdek, ota-bola munosabatlarini o'rganishga mo'ljallangan metodika natijalari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: bola psixologiyasi, ota obrazi, ijtimoiy omillar, oilaviy tarbiya, shaxsiy rivojlanish, gender roli.

РОЛЬ ОТЦА В СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕБЕНКА

Аннотация. В данной статье будет проведен глубокий анализ того, как образ отца формируется в сознании ребенка, социально-психологические факторы этого процесса, влияние среды семейного воспитания и влияние родительских отношений на психику ребенка, роль семейного окружения, общества и культуры, а также влияние отца на психику ребенка. высказываются предположения о том, что формирование образа отца играет важную роль в развитии основных компонентов личности ребенка – ответственности, доверия, чувства защищенности, гендерной идентичности, что изменение отношения и восприятия образа отца на разных этапах жизни ребенка, что позитивные, доверительные и теплые отношения ребенка с отцом могут развить в ребенке ряд положительных качеств, а также развитие взаимоотношений отца и ребенка. представлен анализ результатов методики, предназначенной для изучения.

Ключевые слова: детская психология, образ отца, социальные факторы, семейное воспитание, личностное развитие, гендерные роли.

THE ROLE OF THE FATHER IN THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF THE CHILD

Annotation. This article analyzes in depth how the father's image is formed in the child's mind, the socio-psychological factors of this process, the influence of the family upbringing environment and parental relations on the child's psyche, the role of the family environment, society and culture, as well as the influence of the father on the child's psyche. the formation of the image of the father gives an important place in the development of the main components of the child's personality – responsibility, confidence, a sense of protection, gender identity, changes in attitudes and perceptions of the father's image at different stages of the child's life, opinions that a child's positive, reliable and warm relationship with the father can develop

Keywords: child psychology, the image of the father, social factors, family upbringing, personal development, gender role.

Kirish. Bolaning ruhiy va ijtimoiy shakllanishida ota shaxsining tutgan o'rni beqiyosdir. Bola uchun ota — kuch, himoya va namunaviy shaxs timsolidir. Ota obrazining shakllanishi bolaning ke-lajakdagi shaxsiy rivojlanishiga, gender identifikatsiyasiga va ijtimoiy munosabatlariga bevosita

ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon esa ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Psixologik nuqtai nazardan, bola 3 yoshdan boshlab ota-onani o'ziga yaqin timsol sifatida anglay boshlaydi. Ota bola hayotida avvaliga avtoritar shaxs sifatida, keyinchalik esa do'st, murabbiy va hayotiy yo'l ko'rsatuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Freyd nazariyasiga ko'ra, otaning roli bola shaxsiyatining "super ego" (yüksak men) qismini shakllantirishda muhimdir. Bola ota haqida tasavvurga ega bo'lishda nafaqat oilaviy tajribaga, balki tashqi ijtimoiy muhit – bog'cha, maktab, OAV, atrofdagi erkaklar timsoli orqali ham ta'sirlanadi. Masalan, otasiz oilada ulg'ayayotgan bola boshqa erkaklar (amaki, murabbiy, muallim) orqali "ota" obrazini shakllantiradi. Shuningdek, televizor, internet va kitoblardagi otalar obrazi bolaning tasavvuriga muayyan yo'nalish beradi. Otalar farzandlari bilan emotsional yaqinlikda bo'lishi bolaning ruhiy barqarorligi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ota tomonidan e'tibor va qo'llab-quvvatlash olgan bolalar kelajakda ijtimoiy faol, mas'uliyatli va mustaqil shaxs sifatida kamol topadi. Bola hayotining ilk yillaridanoq o'z yaqinlarining shaxsiyati, munosabati va xatti-harakatlari orqali dunyoni anglay boshlaydi. Aynan shu jarayonda ota obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Ota – bola uchun mehr va qat'iyat, kuch va himoya, ijtimoiy qoidalarning namoyandasi sifatida namoyon bo'ladi[1]. Ota haqidagi tasavvurlar bolaning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ota obrazining shakllanish bosqichlari:

1. Sensomotor bosqich (0–2 yosh): Bola otani hissiy signal (tovush, harakat, yuz ifodasi) orqali taniydi.

2. Ilk bolalik (2–6 yosh): Bola otani kuchli, mehribon, dono deb qabul qiladi. Ota-bola o'rtasidagi o'yinlar, jismoniy kontakt obraz shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

3. Maktabga tayyorlov bosqichi (6–7 yosh): Bola ijtimoiy rollarni anglaydi (ota — ishlaydi, himoya qiladi, oilani boqadi).

4. Boshlang'ich maktab davri (7–10 yosh): Bola otaning xatti-harakatlariga tahliliy yondasha boshlaydi.

Bola hayotining turli bosqichlarida ota obraziga bo'lgan munosabat va tasavvurlar quyidagicha o'zgaradi:

0–3 yosh: Bu davrda bola emotsional bog'lanish asosida onani markazga qo'yadi, biroq otaning ishtiroki bola uchun xavfsizlik hissi, doimiylik va barqarorlik ramzi sifatida ahamiyatli bo'ladi. Agar ota bu davrda faol ishtirok etmasa, bola uning borligini sekinroq idrok eta boshlaydi.

3–6 yosh: Bu davrda bola gender rollarini anglay boshlaydi. O'g'il bola o'zini ota bilan tenglashtiradi (identifikatsiya), qiz bola esa otani ideal erkak timsoli sifatida ko'ra boshlaydi. Freyd nazariyasida bu "Edip kompleksi" deb yuritiladi.

7–12 yosh: Bola ota shaxsini o'z hayoti bilan bog'lashni boshlaydi. U otaning xatti-harakatlarini kuzatadi, undan namunalar oladi, uni o'zining "qahramoni" sifatida ko'radi. Bu davrda otaning bolaga ajratgan vaqti, berilgan e'tibori muhim ahamiyat kasb etadi.

12 va undan yuqori yosh: Ota bilan do'stona yoki ziddiyatli munosabatlar shakllanadi. Bu davrda bola o'zini shaxs sifatida ko'rsatishga urinadi, ota esa yo yo'l-yo'riq beruvchi yoki nazorat qiluvchi sifatida qabul qilinadi. Ota bilan ochiq muloqot mavjud bo'lsa, o'smir o'zini tushunilgan his qiladi.

Freydning psixoanalitik nazariyasida ota — qonun va me'yorlar ramzi deya ifodalangan. Edip kompleksi (3–6 yosh) davrida bola otani raqib sifatida ko'radi, keyinchalik identifikatsiya orqali unga o'xshashga harakat qiladi. Ota bolaning superego (axloqiy ong)ini shakllantirishda asosiy figuradir. Eriksonning psixososial rivojlanish bosqichlarida ota bolaning ijtimoiy mas'uliyat, ishchanlik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarini rivojlantiradi. Ota mavjud bo'lmasa yoki passiv bo'lsa, bola o'zini "yo'lini topolmayotgan" holatda his qilishi mumkin. Ota faolligi, bilim berishi, suhbatlardagi roli ota obrazining chuqurlashuviga sabab bo'ladi. Har bir bola o'zining shaxsiy tajribasi asosida bu obrazlardan biriga yaqin tasavvur shakllantiradi. Ota obrazining shakli bolaning hayotiy idealini, shaxslararo munosabatlarini, o'z-o'zini qadrlashini, kelajakdagi ota rolini (o'g'il bolalarda), erkaklar bilan bo'lgan munosabatlarini (qiz bolalarda) belgilaydi. Ota obrazining shakllanishi faqatgina oilaviy muhit bilan cheklanmaydi. Quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

a) Oila muhitidagi rollar: An'anaviy oilalarda ota ko'proq iqtisodiy ta'minotchi rovida bo'lib, bola bilan emotsional aloqasi zaifroq bo'ladi. Ammo zamonaviy oilalarda otaning tarbiyaviy jarayonlardagi faol ishtiroki bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

b) Madaniy va diniy qadriyatlar: Ota obrazining shakllanishida madaniyat va jinsiy farqlarning o'zni katta. Patriarxal jamiyatlarda ota obraziga nisbatan talablar va kutishlar boshqacha bo'lsa, tenglikka asoslangan jamiyatlarda bu tasavvur demokratikroq shakllanadi. O'g'il bolalar odatda otani o'zlariga ideal namunaviy shaxs deb bilishsa, qiz bolalar uchun ota – himoya, ishonch va mehr timsoli bo'ladi. Ota haqidagi tasavvurlar har bir jamiyatda o'ziga xosdir. Islomiy qadriyatlarda ota – oilaning rahbari, mas'ul shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu esa bolaning ota obrazini hurmat va itoat orqali shakllantiradi. Sharq madaniyatida ota — ustoz, qattiqqo'l, "urishadigan, lekin sevadigan" obraz sifatida tasvirlanadi. G'arb madaniyatida esa "emosional yaqin", farzandi bilan tengdoshlardek muloqot qiluvchi ota modeli keng tarqalgan.

c) Jamiyatdagi erkaklar obrazlari: Bola uchun otaga o'xshash boshqa erkaklar (muallim, sport murabbiyi, amaki) ham "muqobil ota" sifatida obraz yaratadi. Ota bo'lmagan hollarda aynan shu shaxslar bola ruhiyatida otalik obrazini to'ldiradi.

d) Ommaviy axborot vositalari: Televideniya, internet, adabiyotlarda ko'rsatilgan ota obrazlari bolaning ongiga mustahkam o'rnashadi. Bu obrazlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolalarga tavsiya etiladigan kontentga e'tibor qaratish muhimdir. Media, ijtimoiy tarmoqlar, karikatura, kitob va o'yinlar bolada otaga nisbatan ijobiy yoki salbiy tasavvurlarni shakllantirishi mumkin.

e) Ijtimoiy omillar: Oilaning ijtimoiy maqomi (daromad, yashash sharoiti, ota ishdan uzoqda bo'lishi)

g) Ota-onaning rol taqsimoti (masalan, faqat onaning tarbiyada faol bo'lishi)

h) Maktab va bog'chadagi tarbiyaviy muhit (tarbiyachilarning otaga munosabati)

j) Psixologik omillar: Ota bilan emotsional yaqinlik, ota tomonidan e'tibor, maqtov va rag'bat berilishi, onaning o'zini inson sifatida qadrlashi (self-esteem), ota tomonidan namoyish etiladigan mehr, qat'iylik va ishonch.

Bolaning otasi bilan ijobiy, ishonchli va iliq munosabatlari bo'lsa, bola quyidagi sifatlarini o'zida rivojlantiradi:

O'ziga ishonch: Ota tomonidan qo'llab-quvvatlangan bola hayotda o'z fikrini erkin bildiradi.

Mas'uliyat: Ota mas'uliyat timsoli bo'lib, uni o'rnak sifatida qabul qilgan bola ham mas'uliyatli bo'ladi.

Ijtimoiy moslashuv: Ota bilan ochiq muloqotda bo'lgan bolalar jamiyatga tez moslashadi.

Gender identifikatsiyasi: Bola o'z jinsini va unga xos xatti-harakatlarni otasi orqali o'zlashtiradi.

Ota obrazining funksional roli bolada bir qancha o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Jumladan, ota obrazi bolaning shaxsiy identifikatsiyasi (ayniqsa o'g'il bolalarda), erkaklik yoki ayollik me'yorlarini anglash, o'zini himoyalangan, xavfsiz his qilishi, intizom va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni o'rganish (yoshdan kattalarga qanday muomala qilish) uchun asosiy model bo'lib xizmat qiladi.

Salbiy holatlarda esa: Ota bilan muloqot yo'qligi hissiy befarqlikni keltirib chiqaradi. Qattiqqo'l yoki tajovuzkor ota bolasida qo'rquv va past o'zini baholashga olib keladi. Ota obrazining yo'qligi yoki o'rnini to'ldira olmaslik – identifikatsiya muammolariga sabab bo'ladi[2]. Ota obrazi-ning salbiy shakllanishiga quyidagi bir nechta jarayonlar sabab sifatida keltiriladi:

- Ota doimiy yo'qligi yoki befarqligi;
- Ota tomonidan zo'ravonlik, qattiqqo'llik yoki jazolash;
- Ota haqida onaning salbiy fikr bildirishi;
- Ota va bola o'rtasida sifatli muloqotning yo'qligi;
- Bolaning oilada o'zini keraksiz his qilishi.

Bunday holatda ota obrazi buzilgan shaklda — qo'rqinchli, sovuq, begona yoki befarq tarzda shakllanishi mumkin.

Qo'llanilgan metodlar:

Biz o'z tadqiqot ishimiz davomida bolalarda ota obrazining shakllanishi"ni o'rganishga mo'ljallangan "Mening otam" loyihaviy testidan foydalanib, bolalar tasavvuridagi ota obrazini aniqlab, tahlil qildik. Mazkur psixologik metodikaning maqsadi bolalarning ongida shakllangan ota obrazi, unga bo'lgan munosabat, emotsional bog'liqlik va ijtimoiy-psixologik bahoni aniqlashdir. Tadqiqotimizning obyekti sifatida 5–10 yoshdagi bolalar tanlab olindi. Ushbu metodika sinalluvchilarning har biri bilan yakka tartibda o'tkaziladi. Bolaga o'z otasini qanday tasavvur qilsa, shunday qilib chizib berishi topshiriq beriladi. Mazkur jarayonda otaning holati (turganmi, yurganmi, ish qilayaptimi), otaning yuzi (emotsiya: kulgan, jiddiy, xafa), bola o'zini otasi bilan birga chizganmi?, rasmda boshqa oila a'zolari bormi?, ranglar (quyuq ranglar – salbiy emotsiya, yorqin ranglar – ijobiy) kabi mezonlarga ahamiyat beriladi. 2-bosqichda bola bilan loyihaviy suhbat olib boriladi. Bolaga "Senga otang nima uchun yoqadi? Otang seni qachon xursand qiladi? Uyda otang bilan nima qilasiz? Otang bilan ko'p vaqt birga bo'lasanmi? Otang senga qachon qattiq gapirgan? Nimaga?" mazmunidagi savollar beriladi. 3-bosqich baholash va tahlil qilish bosqichi bo'lib, har bir javob va rasm quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

8–10 ball – kuchli ijobiy ota obrazi

4–7 ball – barqaror, lekin cheklangan aloqa

0–3 ball – ota bilan zaif yoki salbiy aloqa

Ushbu metodika yordamida psixolog bolada ota obrazi qanday shakllanganini, ota-bola orasidagi emotsional va ijtimoiy munosabatlarning holatini aniqlashi mumkin. Metodika keyinchalik korreksion-trening ishlanmalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bolalar bilan birgalikda "Otam men uchun qadrlı"korreksion-trening mashg'uloti ham olib bordik. Bundan maqsad-ota-bola o'rtasidagi ijobiy hissiy aloqani mustahkamlash, ishonch va hurmat asoslarini rivojlantirish edi. 8–12 yoshli bolalar bilan 45 daqiqa mobaynida bolalarga bir nechta jarayonda ko'rsatmalar beriladi. Dastlab bolalar bilan ota-bola munosabatiga oid mavzuda oddiy suhbat olib boriladi: Keyingi jarayonda "Ayt, bu kim?" deb nomlangan davomiyli 10 daqiqa bo'lgan psixologik o'yin o'tkaziladi. Bolaga 5–6 ta ijobiy sifat (mehribon, aqlli, kuchli, hazilkash...) o'qiladi va bu sifatlar otasiga to'g'ri kelish-kelmasligi so'raladi. 3 qismda bolalar "Otam – qahramon" mavzusida rasm chizadilar yoki kichik hikoya yozadilar. 4 jarayon rolli o'yin bo'lib, bola "Agar men ota bo'lsam..." deb boshlab, o'z tasavvuridagi namunali otani ifodalaydi. Va nihoyat 5-yakuniy bosqichda "Otamga aytmoqchi edim..." deb nomlanib, bolalar aytishni istagan, lekin aytolmayotgan gaplarini aytadilar yoki yozadilar.

Bu mashg'ulot orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalashga o'rganadi, ota obrazini emotsional jihatdan boyitadi va ijobiy muloqot yo'llari shakllanadi.

Natijalar va munozara: "Mening otam" loyihaviy diagnostikasi savolnoma + rasm + suhbat asosida olib borilib, quyida ushbu metodikadan olingan natijalar tahlili keltirilgan: 5–10 yosh oralig'idagi 150 nafar bolalarda yosh taqsimoti-5–6 yosh – 50 nafar, 7–8 yosh – 50 nafar, 9–10 yosh – 50 nafar. Barcha bolalarning qariyb 60% da ota haqidagi tasavvur ijobiy va emotsional jihatdan boy. 28% ishtirokchilarda esa otaning mavjudligi sezilgan bo'lsa-da, u bilan emotsional aloqa zaif. 12.7% bolalarda esa otaga nisbatan hissiy sovuqlik, qo'rquv yoki begonalik mavjud.

2. Rasmiy topshiriq tahlili ("Men va otam")

150 nafar boladan chizilgan rasmlar asosida quyidagi kuzatishlar qayd etildi:

Mezoni	Kuzatuv holati (%)
Bola otasi bilan birga chizilgan	72%
Ota baxtli holatda tasvirlangan	58%
Ota faoliyatda (ish, o'yin...)	46%
Ota yolg'iz yoki uzoqda chizilgan	18%
Emotsional salbiy ifoda	11%

Ko'pchilik bolalar otasini ijobiy kayfiyatda, birga bo'lgan holatda tasvirlagan. Lekin har 5 boladan 1 tasi otani begona yoki uzoq obrazda chizgan.

3. Bolalarda muayyan yoshda ota haqida turlicha tasavvurlar shakllanadi. Masalan:

Maktabgacha yosh (3–6 yosh): Ota bola uchun qahramon, himoya qiluvchi obrazda shakllanadi. Bola uchun ota jismoniy kuch, hukmronlik, mustahkamlik timsoli. Tasavvur ko'proq fantaziya bilan aralashgan bo'ladi.

Boshlang'ich maktab yoshi (7–10 yosh): Bola otani haqiqiy inson sifatida ko'ra boshlaydi. Ota bilan muloqot sifati tasavvurga kuchli ta'sir qiladi. Bola otaning hayotiy qadriyatlarini tushunishga harakat qiladi. Biz o'z tadqiqot ishimizda aynan yoshga qarab bolalarda ota obrazi haqidagi tasavurning shakllanishini ham o'rgandik. Suhbat natijalari asosidagi kuzatmalar: Suhbat davomida quyidagilar aniqlandi: 84% bola otasini "kuchli", "aqli", "himoya qiluvchi" sifatida tasvirlagan. 21% bola otasi bilan vaqt yetarlicha o'tmasligini aytgan. 15% bola otasidan qo'rqishini yoki "ko'p jahl qilishi"ni ta'kidlagan.

Yoshi bo'yicha umumlashtirilgan tahlil:

Yosh guruhi	Kuchli ota obraziga ega (%)
5-6 yosh	66 %
7-8yosh	58%
9-10 yosh	54%

Yosh o'sib borgan sayin ota obrazining murakkablashuvi kuzatiladi. Kattaroq yoshdagi bolalarda otaga nisbatan tanqidiylik ortadi, shuningdek, aloqaning zaiflashishi ham seziladi. 60% dan ortiq bolalar otani ijobiy obrazda qabul qiladi, bu esa oilaviy aloqalarning sog'lomligini ko'rsatadi. Ota-bola o'rtasidagi hissiy aloqani mustahkamlash uchun otalarning faol ishtiroki, sifatli muloqoti zarur. Ota bilan bog'liq salbiy obrazlarga ega bolalar uchun psixologik korreksion mashg'ulotlar o'tkazilishi tavsiya etiladi. Maktabgacha muassasalarda va boshlang'ich sinflarda "Ota ishtirokidagi darslar", "Ota-bola kuni" kabi ijtimoiy loyihalar foydali bo'ladi.

Xulosa. Ota obrazining shakllanishi bola ruhiy hayotining markaziy qismlaridan biridir. Yuqoridagi fikrlar va tajribalardan kelib chiqib, bir nechta tarbiyaviy tavsiyalarni ishlab chiqdik. Avvalo, ota bolaning hayotida faol ishtirokchi bo'lishi zarur (suhbat, o'yin, birga vaqt o'tkazish), shuningdek, ota o'zining ijobiy sifatlarini namoyon qilishi (mehribonlik, javobgarlik, adolat), bolaning his-tuyg'ularini diqqat bilan tinglash, har bir yosh bosqichida bolaning ota haqidagi savollariga ochiq va sodda javob berish, maktab va bog'chada otalarning rolini faollashtirish (masalan, "Ota kuni") kabi jarayonlarga e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bolaning ota haqidagi tasavvuri nafaqat oila, balki keng ijtimoiy muhit, madaniyat va kommunikatsion vositalar orqali shakllanadi. Ota bilan barqaror va iliq munosabatlar bolada ijobiy shaxsiy xususiyatlar shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli otalarning bolalar tarbiyasida faol ishtiroki nafaqat oila, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda oilaviy muhit, ota-ona munosabatlari, jamiyatdagi erkaklar namunasi, madaniyat va media vositalari muhim o'rin tutadi. Ota – bola uchun nafaqat mehribon inson, balki, hayot saboqlarini o'rgatuvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi shaxsdir. Shu sababli, har bir ota o'zining farzandi uchun qanday timsol bo'layotganini anglamog'i va bola ruhiyatiga ongli tarzda ta'sir qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Steinberg, L. (2001). We know some things. Parent-adolescent relationship in retrospect and prospect. Journal of Research on Adolescence, 11(1), 1–19.
2. Z.T.Nishanova., Sh.T.Alimbayeva., M.V.Sulaymanov "Psixologik xizmat" darslik, Toshkent – 2014.
3. V.M.Karimova, "Oila psixologiyasi" Darslik – T.: 2007.
4. D.T.Ismatova.Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarni empirik tahlili. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar // Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – Buxoro, 2023. №5.
5. D.T.Ismatova.Farzand tarbiyasi kontekstida ota-ona fenomenining nazariy metodologik asoslari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy metodik jurnal. – Buxoro, 2023. №10.

	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida emotsional intellektning ahamiyati
89	Saidova Yulduz Akbarjon qizi O'smirlar o'zaro munosabatlarida ishonch hissi namoyon bo'lishininng pozitiv va negativ tomonlar
94	Shamsiddinov Botirjon Nuriddinovich Shaxsning detarminatsiyasi va javobgarlik muammosi: Freyd psixoanalizi asosida tahlil.
99	Sharifova Maxliyo Zarif qizi Homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati
105	Shomurodov Ibrohim Xusanmurot o'g'li Ekstremal vaziyatlarda shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirishga yo'naltirilgan treninglar dasturining ijtimoiy-psixologik ahamiyati
110	Shukurova Dilfuza Roupovna Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligining omillari tahlili.
114	Shukurova Iminur Baxtiyorjon qizi Sharq madaniyatida ko'p avlodli oilalarning psixologik o'ziga xosliklari
118	Tog'ayeva Umida Shavqi qizi Ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirishda pedagogik, lingvodidaktik va pragmatik xususiyatlar
124	Tursunboyev Sherdor Akbarali o'g'li O'quvchilarni jamoaviy sport turlariga qiziqishining psixologik jihatlar
128	Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Zokirova Nozima Maxmudjon qizi Yuqori sinf o'quvchilarining shaxsiy rivojlanishida o'ziga ishonchning roli
133	Usmonova Shoira Siddiqovna, Zamonaviy jamiyatda gender rollarining psixologik asoslari
137	Yunusova Go'zal Sultonovna, Anvarjonova Zulxumor Oxunjon qizi O'smirlik davrida shaxsiy avtonomiyaning shakllanishida ijtimoiy guruhlarining funksional roli: sotsiopsixologik va axloqiy-nazariy yondashuvlar
142	Бакоева Мафтуна Шухратовна, Усманова Манзура Наимовна The role of teachers in preventing and addressing bullying in educational settings: strategies, challenges, and implications
149	Тоштемирова Нигора Иброхимовна Самооценка и семейные отношения у подростков
156	Ismatova Dilafruz Tuymuratovna Bolaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida otaning roli
161	Mo'minov Davronjon Marifjon o'g'li Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari va motivatsiyasi: amaliy psixologik tahlil
167	Ro'ziyev Umar Muzafarovich Ijtimoiy fobiya rivojlanish sabablari va hozirgi zamon psixologiyasida fobiyalarni korreksiyalash
172	Saydjanov Farxod Madraximovich Ma'lumotlarni idrok etishda salbiy va ijobiy axborotlarning o'smir ongiga ta'siri
175	Qahharova Sayyora Bahodirovna O'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning psixologik asoslari
178	Turdiyeva Nigora G'ani qizi Talabalar psixologik farovonligining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga bog'liqligi